



# Rossiya Imperiyasining Yettisuv Viloyatini Mustamlaka Qilishda Ko‘Chirish Siyosati Va Amaliyotining O‘Rni

*Ortiqov Umirillo Mamadiyorovich*

*Sam DChTI akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi*

**Аннотация:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Yettisuv viloyatini mustamlaka qilishda ko‘chirish siyosati va amaliyotining o‘rni haqida so‘z boradi. Maqoladagi ishlatalgan barcha ma’lumotlar tarixiy faktlar hisoblanib shu davr haqida ko‘plab adabiyotlardan foydalanilgan mazkur davr tarixiga oid terminlar qo‘llaniladi.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston general-gubernatorligi, stanitsa, kazaklar, chorizm, poseleniya, metropoliya, Muvaqqat Nizom, o‘tish guvohnomasi.

XIX asr o‘rtalariga kelib, Rossiya imperiyasining hukmron doiralari O‘rta Osiyon bo‘ysundirish, mustamlakaga aylantirish bo‘yicha harbiy - ma’muriy choralarmi faol tajovuzlik bilan amalga oshira boshlagan pallada rus hukumati Kaspiy va Qora dengizdan Tinch va Shimoliy Muz okeanlarigacha bo‘lgan hududda hukmronlik qilib turgan edi.

Shu munosabat bilan sovet davridagi ijtimoiy - siyosiy nashrlarning ko‘pchiligidagi, hatto ilgarigi davrlarning rasmiy nashrlarida ham XIX asr o‘rtalarida Rossiya hukumatining mustamlakachilik intilishlarining kuchayishi asosan rivojlanayotgan kapitalizmning yangi xomashyo va savdo bozorlariga bo‘lgan ehtiyojlari bilan izohlanardi. Shuni ta’kidlash o‘rinlikni, imperiya tashqi siyosatida o‘ziga xos tomoni hisoblangan Rossiyaga qo‘schni bo‘lgan tabiiy boyliklarga ega, qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan va harbiy-siyosiy jihatdan zaif o‘lkalarni egallash XVI asrdan so‘ng asosiy o‘rinda turdi.

Ma’lumki, Rossiya imperiyasi Turkiston tomon harbiy harakatlarini boshlagan XIX asrning 20-yillaridayoq Sibir va Ural kazaklarining qozoq va keyinchalik qirg‘izlarning hududlariga majburiy tarzda ko‘chirilishi va mahalliy aholidan tortib olingan erlarda joylashtirilishi boshlangan edi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilinguncha qadar K.P.Kaufmanning yozishicha, «Kazaklarga xo‘jalik jihatidan eng yaxshi erlar berilgan va qirg‘iz, qozoqlarning huquqlari, ehtiyojlariga e’tibor berilmagan... Kazaklar daryochalarni ham o‘z nazoratiga olib, qirg‘iz, qozoqlarning erlari suvni berish yoki bermaslikni hal qiladigan bo‘lishdi va ularning hisobiga osongina boy bo‘la boshlashdi»<sup>1</sup>.

Kazaklarni tez tayyor bo‘ladigan harbiy kuch sifatida inkor etmagan holda Turkiston ma’muriyati, ularni ko‘chirib keltirgandan ko‘ra krestyanlar, savdogarlar, sanoatchilarining o‘lkaga ko‘proq kelishlarini foydaliroq deb hisoblaydi.

XIX-asrning 60-yillar oxirida, Rossiya qo‘sishinlarining O‘rta Osiyo ichkarisiga kirib borish rejalarini bilan bog‘liq ravishda, beqiyos darajada boy bo‘lgan va aholi zinch joylashgan yangi hududlarga muayyan tabaqalardagi rus aholisini ko‘chirib keltirish yo‘li orqali ushbu hududdagi hukmronlikni ta’minlash mezonlari, tamoyillari hamda uning shartlari imperianing oliy doiralari topora faolroq muhokama etila boshlandi. Shunday bo‘lsa-da, Rossiya imperiyasining mustamlakachi siyosati va amaliyotida harbiyashgan kazaklarning roli saqlanib qoldi. Avvalo, Xitoy bilan chegaradosh qozoq, qisman qirg‘iz hududlariga joylashtirilganidan keyin kazaklar shovinistik kayfiyatdagi doimo tayyor harbiy politsiya kuchi bo‘lib qolaverdi; ikkinchidan, Qo‘qon xonligi hududlari (Pishpek, Marki, Avliyoota, Oqmachit,

<sup>1</sup> Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 гг. – СПб., С.157-158.



Chimkent)agi strategik punktlarni birlashtiruvchi yo'llar bo'ylab ko'plab kazaklarning stanitsalari, krestyanlarning qishloqlariga asos solindi. Ular Turkistonda soliq-o'lpon, katta er maydonlari berish, krestyanlarni harbiy xizmatdan 5 yilga ozod qilish kabi imtiyozlar bilangina emas, balki oziq-ovqat, pul bilan yordam ko'rsatish shartlari bilan ko'chirilganlar.

General-gubernator K.P. fon Kaufmanning hisoboti loyihasida ta'kidlanganidek, «1864 yilda ilgari asos solingan kazak o'troqlari chegaralarini yuqori Irtishdan nariga... Issiqko'l havzasigacha etkazish taklifi yuzaga keldi. O'sha vaqtagi siyosiy voqealar, ayni dunganlar qo'zg'oloni hamda Sharqi Turistonning Yoqubbek tomonidan bosib olinishi, biz mo'ljallagan ishning harbiy-strategik jihatdan qo'yilishiga alohida dolzarblik baxsh etardi... Chegaraga odamlarni ko'chirib keltirish rejasи batatsil o'ylab chiqilgandi: gap Buxтарма daryosidan to Norin o'lkasigacha bo'lgan chegara kengliklarida stanitsalar va poselenielarning barpo etish to'g'risida bormoqda edi»<sup>2</sup>.

Kazaklarning Yettisuv viloyati ichki mintaqalariga ko'chirilishiga, bu erda mo'ljallangan rus davlatchiligi va fuqaroligini joriy etishga, ayniqsa, o'inka tub xalqlari iqtisodiyoti, madaniy qadriyatlarini metropoliya manfaatlariga bo'ysundirishga yaramas edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo hududiga umumrossiya qonunlari va imperiya tartiblari sekin-asta joriy etilgan. Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori K.K.Kaufmanga cheksiz vakolatlar berilgan<sup>3</sup>. Turkiston general-gubernatorining o'lkadagi faoliyati Rossiya imperiyasi qonunlariga asoslangan. Rasmiy ravishda Turkistondagi hokimiyat "harbiy-xalq boshqaruvi" deb nomlangan<sup>4</sup>.

1867 yilda yangi tuzilgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatini o'z tarkibiga olgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, rus aholining bir qismini ko'chirish siyosatiga yondashuv bo'yicha o'z mulohazalarini general-gubernator K.P.Kaufman va Yettisuv oblastining Harbiy gubernatori general Kolpakovskiy birinchi bo'lib izhor etishgan. Ularning takliflari o'sha vaqtda qabul qilinmadni, lekin Yettisuv, Sirdaryo, keyinchalik Farg'ona, Kaspiyorti va Samarqand viloyatlarida 1881 yilgacha ham metropoliyadan asosan dehqon aholisini ko'chirib keltirishga moyillik kuchliroq bo'lgan.

Ko'chiriluvchilariga ularning chiqish joyidan yo'l hujjati berish bo'yicha XIX asrning 70-yillar boshida joriy etilgan majburiy tartibga napisandlik bilan qaralishi ko'chib kelayotganlar, ayniqsa, o'zboshimchilik bilan, beruxsat ko'chib kelayotganlar orasida kambag'allarning salmog'i katta bo'lishiga olib keldi. Ko'chirib keltiriluvchilar tarkibi quyidagi asosiy toifalardan: 1) xizmat muddatini o'tab bo'lib, bu erda katta imtiyozlar evaziga qolgan askarlardan. Ularning ko'pchiligi oila boshiga 7 desyatinadan er olib, uni ersiz dehqonlarga teng sherikchilik asosida ijara berardi; 2) 1861 yil islohoti oqibatida qashshoqlashgan, dastlab Primore, Sibirga, boshqa mintaqalarga jo'natilgan, lekin u yoqlardan Turkistonga hamda Dasht o'lkasiga beruxsat ko'chib kelgan dehqonlardan; 3) tashkiliy ravishda, yo'l hujjatlari asosida ko'chib kelgan, shu sababli yangi joyda etarli miqdorda er bilan ta'minlangan, harbiy xizmatdan, soliqlar va to'lovlardan 3-5 yilga ozod qilingan krestyanlardan iborat edi. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, Turkiston endigina mustamlakaga aylantirilayotganda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida rus armiyasida xizmatini o'tab bo'lgan askarlarning, metropoliyadan ko'chib kelgan krestyanlarning oilasidagi har bir erkakka 30 desyatinagacha er berilgan. Yangi ko'chib kelgan krestyanlar barcha soliqlar va to'lovlardan ozod etilgan. Bundan tashqari, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan krestyanlarning har bir oilasiga 100 rubl uzoq muddatli qarz (ssuda) berilgan edi<sup>5</sup>.

Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosatining birinchi bosqichi – chegaralarini mustahkamlash va bu erda boshqa davlatlar ta'sirining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Yettisuvda kazak aholi punktlarining shakllanish davri XIX asrning 40-yillarida boshlanib, 60-yillarning boshlarigacha davom

<sup>2</sup> Кауфман К.П. Проект всеподаннейшего отчета... С.152.

<sup>3</sup> Абашин С.Н., Арапов Д.Ю., Бекмаханова Н.Е. Центральная Азия в составе Российской империи. – Москва, 2008, - С. 91-92.

<sup>4</sup> Эргашев Б.Э. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ.) – Ташкент, 2015. -С.20

<sup>5</sup> Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. – Спб., 1910, С. 9.



etdi. XIX asrning 60-yillari o‘rtalaridan 80-yillarning oxirigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan ko‘chirish harakatining ikkinchi bosqichi, asosan, faqat Yettisuvda birinchi dehqon posyolkalarining paydo bo‘lish davriga aylandi. Rus ko‘chmanchilaridan tashqari, 70-80-yillarda. XIX asrda Xitoydan ochgan bir qancha dungan va uyg‘urlar ham Turkistonga ko‘chib o‘tgan.

Rossiya imperiyasi o‘zining mustamlaka xududlariga ko‘chirish siyosatini amalga oshirishi aholining ijtimoiy hayotida ham o‘ziga xos davrni boshlab berdi. Albatta, qadim tarixdan insoniyat yashayotgan jamiyatda ko‘chishlar, deportatsiya va migratsiyalar insoniyatning ijtimoiy hayotidagi muhim omillardan biri bo‘lib kelgan. Mazkur omil insonlar hayotida nafaqat ijtimoiy, balki, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ham muhim ko‘nikma bo‘lib kelgan. Shuningdek, ommaviy migratsiya, deportatsiya va xalqlarning bir joydan boshqa joyga ko‘chishlari madaniyatlarning almashinushi yoxud, boshqa xalqlarning madaniyatlarini qabul qilish yoki aksincha singdirish, o‘zga muhitda yangicha xo‘jalik turlarini kashf etish, yangicha ijtimoiy hayotga moslashish, yangi davlatchilik va jamiyatning shakllanishi kabi mexanizmlarini bajarib kelmoqda.

1845 yildagi Katta juz bo‘ysundirildi va bu erda ham rus aholi punkti tashkil etildi. 1847 yilda – Kopalskiyda, 1848 yilda – Sergiopolda, 1854 yilda – Olmaota (Verniy istehkomi)da, 1855 yilda – Yuqori Lepsinskyda va, shu tariqa, 1867 yilgacha Yettisuv viloyati hududida 14 ta kazak qishloqlari tashkil etilib, jami 14 ming nafar Rossiya aholisi joylashtirildi<sup>6</sup>.

Yettisuv va Sirdaryo hududlarida Rossiyadan ko‘chib kelganlarni qabul qilish o‘ziga xos bo‘lgan bosqichlarda amalga oshirildi. Jumladan, Yettisuvga aholi migratsiyasi va ularning ijtimoiy holatiga ko‘ra joylashuvi imperianing Turkiston o‘lkasidagi o‘ziga xos tajriba sinov hududi vazifasini ham o‘tab berdi.

Yettisuv hududlarida ko‘chirilganlarni joylashtirish uchun bir qancha qulay imkoniyatlar, ya’ni bo‘sh erlarning ko‘pligi, aholi sonining kamligi, havfsizlik jihatdan birmuncha barqarorligi, ortiqcha suv manbalarining mavjudligi sababli migratsiya jarayonlari dastlab shu erda amalga oshirildi. Yettisuv viloyatida 1867 yilgacha asosan harbiy kazaklar joylashtirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda Rossiya imperiyasining markaziy va g‘arbiy hududlaridan ham aholi ko‘chirilgan.

Shuningdek, dastlabki migratsiyalar Yettisuv viloyatining beshta uezdi Verniy, To‘qmoq, Kopalsk, Sergiopol va Issiq-ko‘lga qabul qilinganlar hisobi “Turkestanskie vedomosti” sahifalarida keltirilgan<sup>7</sup>. Bu paytda Rossiya imperiyasi aholisining migratsiyasi Yettisuv viloyatining ichki uezdlari Verniy, Urjar va Boroxudzor hududlari bo‘ylab hamda To‘qmoqdan, Norin va Qorako‘l (Issiq-ko‘l uezdi)ga qadar amalga oshirilgan edi<sup>8</sup>.

1868-1883-yillar oraliq‘ida Yettisuv viloyatida 2500 oiladan iborat 36 ta rus qishloqlari vujudga keldi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ruslardan tashqari ushbu qishloqlarga aynan rus fuqaroligini olgan boshqa etnik guruuhlar ham joylashtirilgan. Jumladan 68 ta qoshg‘arliklar shunday “biletsiz” tashrif qilganlardan bo‘lib<sup>9</sup>, ularga fuqarolik berilib, viloyatga joylashtirilgan.

1876 yilga kelib, Yettisuvda asosiy rus dehqonlaridan iborat bo‘lgan 22 ta posyolkalar tashkil topdi. 1883 yilda Yettisuvdagi rus posyolkalar soni 36 taga etib, ularda 15 ming aholi qayd etildi<sup>10</sup>.

Viloyat faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish uchun 1868 yil 19 fevralda (2 mart) general-gubernator boshchiligidagi Yettisuv viloyati hukumati ochildi. Mashhur general leytenant Gerasim Alekseevich Kolpakovskiy (1868-1882) Yettisuv viloyatining birinchi gubernatori etib tayinlandi, keyin uning o‘rniga

<sup>6</sup> Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. Переселенческое дело в Туркестане.– СПб., 1910. – 7 с.

<sup>7</sup> O‘sha joyda

<sup>8</sup> Туркестанские ведомости. 1870 г. 31 декабрь, № 17. С. 5.

<sup>9</sup> Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. Переселенческое дело в Туркестане - СПб, 1910. – С.8, 12.

<sup>10</sup> Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX в. (социально-экономический аспект). – Тошкент, Фан, 1983. – С. 36-37.



general-mayyor A.Ya. Fride (1882-1887), keyinchalik G.I. Ivanov (1887-1890) va M.E. Ionov (1890-1907)<sup>11</sup>lar faoliyat olib bordi.

Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlarning deyarli hammasi, ba’zi istisnolar bilan, tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga nisbatan buyuk davlatchilik-shovinistik munosabatda va jangarilik kayfiyatida edi.

Rossiya imperiyasi hukumati Ettisuv viloyatidagi hukmronligining qaltisligini anglagani holda, o‘lkaga o‘z aholisining bir qismini izchillik bilan ko‘chirishga harakat qilib ko‘chishni istovchilar orasidan ko‘chiriladiganlarni saralab olishga e’tibor bergen. Bu jarayonlar imperiya hukmron doiralarida avvaldan boshlangan edi. Masalan, o‘lkaning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman Ukraina mintaqalaridan kazaklarning ko‘chirib keltirilishiga norozilik bildirgan va, asosan, rus qishloq aholisini ko‘chirib keltirishni talabi bilan chiqqan edi.<sup>12</sup>

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Ettisuv viloyatiga ko‘chirish siyosati dastlabki davrining quyidagi xarakterli jihatlari mavjud: birinchidan, ko‘chirish siyosati tartibsiz amalga oshirilishi, ikkinchidan, ko‘chib kelayotgan aholi mahalliy aholiga nisbatan yomon munosabatda bo‘lgan. Bundan tashqari mahalliy aholini kansitish rus harbiylari tomonidan shavqatsiz ravishda amalga oshirilgan edi. Ko‘chib kelayotga aholi turli joylardan kelishi va ularni Ettisuv viloyatining qaysi hududlariga joylashtirish masalasi ham hal etilmagan edi. Bunday holatlар dastlabki bosqichda mustamlaka tartiblari, harbiy boshqaruv tizimlari hali mavjud emasligi bilan bog‘liq edi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 гг. – СПб., С.157-158.
2. Абашин С.Н., Арапов Д.Ю., Бекмаханова Н.Е. Центральная Азия в составе Российской империи. – Москва, 2008, - С. 91-92.
3. Эргашев Б.Э. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ.) – Ташкент, 2015. -С.20
4. Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. – Спб., 1910, С. 9.
5. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. Переселенческое дело в Туркестане.– СПб., 1910. – 7 с.
6. Туркестанские ведомости. 1870 г. 31 декабрь, № 17. С. 5.
7. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX в. (социально-экономический аспект). – Тошкент, Фан, 1983. – С. 36-37.
8. Обзор Семиреченской области за 1913г.-Верный, 1913. – С.83
9. O‘z MA, .I-1-fond, 2-ro‘yxat,1905-ish,2-varaq.
10. Шушкова М.Е. Организация управления Туркестаном в начале XX века. ... – С.81

<sup>11</sup> Обзор Семиреченской области за 1913г.-Верный, 1913. – С.83

<sup>12</sup> O‘z MA, .I-1-fond, 2-ro‘yxat,1905-ish,2-varaq.